

**YOSHLARNING DINIY IJTIMOIYLASHUVINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR
ETUVCHI OMILLAR TASNIFI**

Sotiboldiyev Asqarali Shuxrat o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistri

Annotatsiya: Globallashuv jarayonlari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy sohalari bilan bir qatorda ijtimoiy-ma'naviy jihatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda, ijtimoiy ongning turli ko'rinishlari yangicha mohiyat kasb etib, mutlaqo boshqacha ko'rinishda namoyon bo'lishi haqida maqolada tahliliy fikirlar yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: Globallashuv, ommaviy madaniyat, din, axloq, qadriyaqt, yoshlar, ijtimoiylashuv, yoshlarning dunyo qarashi, siyosiy madaniyat, diniy bag'ri kenglik.

**CLASSIFICATION OF FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF
RELIGIOUS SOCIALIZATION OF YOUTH**

Sotiboldiyev Asqarali Shuxrat o'g'li
Master's student of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Annotation: *The processes of globalization have an impact on both the political and economic spheres of society, as well as on socio-spiritual aspects, the article provides analytical reasoning about how various manifestations of social consciousness acquire a new essence and manifest themselves in a completely different form.*

Basic concepts: *globalization, mass culture, religion, morality, value, time, youth, socialization, youth worldview, political culture, religious tolerance.*

Bugungi kunda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar, jadallahuv jarayonlari bir so'z bilan "globallashuv" deb nomlanadi. Ushbu fenomenning tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan axloq va din o'rtasidagi munosabatlarga ko'rsatayotgan ta'siri haqida fikr bildirishdan oldin "globallashuvning o'zi nima?" degan savolga qichqacha javob berib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ijtimoiy hayot rivojlanib, taraqqiyotga erishib borgani sari biz atrofimizdagi deyarli barcha narsalarning ma'lum bir ma'noda globallashib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

"Globallashuv" fenomeni vujudga kelganiga va ilmiy doirada iste'molga kiritilganligiga juda ham ko'p vaqt bo'lganicha yo'q. Lekin ushbu fenomen tarixan qisqa davr ichida insoniyatning ming yillar davomida shakllanib kelgan axloqiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy ongi, qadriyatları tizimi va turmush tarzida tub sifatiy o'zgarishlarga olib keldi. Globallashuv bu "butun jahonning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va

diniy jihatdan integrasiyalashuvi va unifikasiyalashuvi jarayoni³” bo‘lib, dastavval iqtisodiy jihatdan hamkorlikning o‘ziga xos ko‘rinishi, turli mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy munosabatlarida umumiyl manfaatlar yo‘lida tabiiy ravishda yaqinlashuvi sifatida talqin qilingan. Keyinchalik esa globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi, mehnat bozori va ishlab chiqarish resurslarining qaytadan taqsimlanishi, migrasiya jarayoning kuchayishi, butun dunyo kapitalining ma‘lum bir iqtisodiy-moliyaviy markazlarda to‘planishi, milliy qonunchilik tizimlarining standartlashtirilishi, turli madaniyatlarning quralashuvi, ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar, yangi davr tafakkurining vujudga kelishi, qadriyatlar tizimining qaytadan shakllantirilishi, axborotning eng asosiy kapitalga aylanishi kabi xususiyatlar bevosita globallashuv davrining xarakterli jihatlariga aylandi. Globallashuv – ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan, tizimli xarakterga ega bo‘lgan ob‘ektiv jarayon. Globallashuv natijasida ijtimoiy borliq o‘zini tashkil etuvchi sub‘ektlarga yanada ko‘proq bog‘liq va daxldor bo‘lib bormoqda⁴.

Globallashuv davrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bunda butun dunyo yaxlit bir tizimga aylanadi, dunyoning qaysidir qismida sodir bo‘lgan jarayon boshqa chekkasida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, aks-sado beradi. Qolaversa, globallashuvda har bir davlatning ravnaqi, taraqqiyoti yoki inqirozi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shni davlatlar, balki boshqa mintaqa va hududlar bilan bog‘liq tarzda kechadiki, bu ob‘ektiv jarayondan chetda turish (aslida mumkin bo‘lmagan jarayon) mamlakatning rivojlanishida sun‘iy to‘siq yaratish bilan barobardir. Bu aksiomaning falsafiy tahlili shundaki, globallashuv jarayoniga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslikni alohida olgan bir millat, xalq yoki davlat Prezidenti yoki hukumat rahbari hal qila olmaydi⁵. Umuman olganda, nazarimizda globallashuv va unga xos bo‘lgan xususiyatlarni tadqiq etar ekanmiz, ushbu jarayonni salbiy yoki ijobiy deya baholash emas, ungagina xos bo‘lgan xususiyatlarni tadqiq etishimiz, globallashgan dunyoni o‘rganishimiz maqsadga muvofiqdir.

Globallashuv jarayoni ta’sir ko‘rsatmagan birorta jarayon, ijtimoiy institut yoki geografik mintaqaning o‘zi mavjud emas. Globallashuv davrida ijtimoiy ong hamda faoliyatning barcha shakllarida bo‘lgani kabi axloq va dinning ham globallashuvi ro‘y bermoqda, ularning ichki strukturasida va ijtimoiy hayotda amalga oshirib kelgan vazifalarida sifatiy o‘zgarishlarga uchradi va ushbu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Axloq va dinning globallashuvini o‘rganish ular o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi kundagi o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda o‘rinli savol paydo bo‘ladi: axloqning globallashuvi nima? Globallashuv fenomeni axloq tizimining qaysi tomonlariga ta’sir ko‘rsatadi va ushbu ta’sirning namoyon bo‘lishi qanday o‘ziga xos jihatlarga ega? Ushbu savollarga atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

³ Глебов Г. И., Милаева О. В. Современные международные отношения. Учебное пособие. — Пенза: Изд. Пенз. гос. ун-та, 2010. — 98 с.

⁴ Гринин Л. Е. Глобализация и национальный суверенитет // История и современность. 2005. — № 1. — С. 6—31

⁵ Falsafa: ensiklopedik lug‘at – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2010. 80 bet

Axloqning o‘ziga xos tomoni shundaki, u har qanday jamiyatning qadriyatlar tizimida o‘zining o‘rniga ega va aynan qadriyatlar axloqiy me’yorlarga amal qilinishida eng muhim dastaklardan biri bo‘lib, axloq ma’lum bir mintaqaga yoki ijtimoiy guruhning boshqalaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Globallashuv jarayoni esa ijtimoiy ong shakllarning an’naviy namoyon bo‘lish shakllari bilan bir xil emas. Bugungi kunda globallashuv davrining shiddatli oqimi nafaqat an’naviy va industrial balki postindustrial jamiyatlardagi ijtimoiy institutlarga ham sezilarli tarzda ta’sir qilmoqda. Bu jarayonni bevosita axloqning globallashuvi jarayonida ham kuzatishimiz mumkin. Globallashuv kontekstida axloq va uning tamoyillari uchun funksional joy qisqarib bormoqda, jamiyatni boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib borishda an’naviy axloqiy qoidalar o‘rnini doimiy ravishda tavakkalchilikka asoslangan, g‘ayriaxloqiy, y e ngil-yelpi hayotni targ‘ib qiluvchi “ommaviy madaniyat” egallab bormoqda. Axloq insonlarning faqatgina ma’naviy-ruhiy olamida aks eta boshladi, globallashuv davrida esa qadriyatlar asosan moddiy ehtiyoj va talablardan kelib chiqib baholanadi⁶. Globallashuv davrining eng asosiy xususiyatlari namoyon bo‘luvchi savdo-iqtisodiy va ma’muriy-boshqaruvga oid ijtimoiy munosabatlarda insonlar uchun o‘ziga xos ko‘rinishdagi axloqiy me’yorlar qo‘yila boshlandi (masalan, “xaridor hamisha haq”, lekin faqat aniq chegara doirasida; hech qachon sotilmaydigan narsalardan tashqari barcha narsalarni sotib olish mumkin va boshqalar). Boshqacha qilib aytganda, an’naviy axloqiy qarashlar ijtimoiy hayot, mavjud reallikda o‘z faol pozitsiyasini boy bera borishi, globallashuv davri talablariga mos bo‘lgan yangi ko‘rinishdagi global axloqning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Axloqning globallashuv davrida eng xarakterli xususiyatlardan biri shundaki, bugungi kunga kelib axloqiy munosabatlар va me’yorlarning ijtimoiy hayotda aks etibx borishida mintaqaviy xususiyatlarning ahamiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunga ma’lum bir sabablar mavjud. Xususan, globallashuv jarayoni o‘z o‘rnida ushbu jarayonga qarshi bo‘lgan antiglobalistlarning harakatini vujudga kelishi va rivojlanib borishiga olib keldi. Chunki globallashuv jarayoni faqatgina global imkoniyatlar, hamkorlik va taraqqiyotning emas, muammolarning ham global ahamiyat kasb etishini, global tahdidlarning ham o‘sib borishini nazarda tutadi. Bu esa o‘z navbatida mekanikadagi mashhur ingliz fizik olimi I.Nyutonning uchinchi qonuniyatining⁷ ijtimoiy hayotda ham aks etishiga bir misol sifatida antiglobalashuv jarayonlarini shakllantirdi. Antiglobalistlar globallashuvning ta’sirlaridan himoyalanishni yoqlashi natijasida ba’zi mintaqalarda yashovchi etnik birliklarda milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish kuchayib bormoqda, bu esa ularning ming yilliklar davomida shakllanib kelgan urf-odat, an’analar tizimini tiklashga, axloqiy normalarni globallashuvning madaniy kontekstini tashkil etib boryotgan “ommaviy madaniyat”ga qarshi qo‘yishga intilishiga olib kelmoqda. Shunga o‘xshash holatni biz mamlakatimiz

⁶ <http://conflictmanagement.ru/globalizaciya-i-mesto-morali>

⁷ “Aks ta’sir qonuni” – Ta’rifi: “Har qanday ta’sirga teng va qarama-qarshi yo‘nalgan aks ta’sir doimo mavjud”. Qarang: https://uz.wikipedia.org/wiki/Isaac_Newton

misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Ushbu jarayonning natijasi o'laroq, axloqning global ahamiyat kasb etib borishi bilan parallel ravishda lokallashuvi ham kuzatilmogda.

Albatta biz ushbu jarayon qaysidir mintaqqa yoki etnik guruhda to'liq amalgalashuv shoshtan degan fikrdan yiroqmiz. Biroq taraqqiyot, iqtisodiy hayotning rivojlanishi, turmush darajasining oshishi uchun an'anaviy axloqiy normalardan voz kechish og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini G'arb mamlakatlari misolida kuzatgan Sharq mamlakatlarida yashovchi ijtimoiy ma'naviy elita vakillarining aksariyati axloqiy normalarning (xoh u diniy asosga tayangan bo'lsin, xoh rasional bilinga) barqaror rivojlanishi uchun davlat siyosati darajasida faoliyat olib borish kerakligini yoqlab kelishmoqda.

Rus tadqiqotchisi M. Reshetnikov globallashuvning vujudga kelishi va rivojlanishida axborot texnologiyalarining birlamchi o'rinni tutishini asoslashga harakat qilib, olim globallashuv jarayonidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida "yuqori texnologiyalarning rivojlanishi, axborot uzatish tezligining o'sishi va shaklining murakkablashib borishi"ni ko'radi⁸. Axborotlashuv jarayoni globallashuv davrining xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bugungi dunyoni internet tarmog'isiz, kibermakon va undagi insonlarning virtual munosabatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan kibermakondagi ijtimoiy munosabatlarda axloqiy me'yorlar transformasiyalanib, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar qaytadan baholanib bormoqda.

Virtual olamda axloqning ijtimoiy munosabatlarda aks etishining eng o'ziga xos xususiyati axloqning eng asosiy vazifasi – regulativ ya'ni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, nazorat qilish funksiyasining ahamiyati kamayib borayotganligidir. Buni bir qancha sabablari mavjud bo'lib, ularning barchasi axloqning kibermakondagi o'rnini yaqqol belgilab bermoqda. Ularga birma-bir to'xtalib o'tamiz:

- kibermakonda ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilishning murakkabligi; Internet foydalanuvchilari (users) virtual aloqalar platformasida real voqelikka nisbatan erkinlikni his qilishadi. Bu esa ularning o'zaro munosabatlarda axloqiy me'yorlarga rioya qilishda nisbatan erkinroq bo'lishlariga olib keldi. Virtual makonda ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilishning murakkabligi axloqning transformasiyasiga sabab bo'lmoqda;

- anonimlik. Virtual maydonagi munosabatlarda foydalanuvchilar har doim o'z shaxsini yashirish imkoniyatini saqlab qolishadi. Bildirilgan fikr, munosabat, joylangan yangi surat uchun jamiyat oldidagi javobgarlik, burch hissi anonimlik natijasida ikkinchi darajaga tushib qolmoqda;

- munosabatlarga kirishishda subordinasiyaning yo'qligi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida ba'zida barcha foydalanuvchilarni absolyut teng degan taassurot paydo bo'ladi. Mutlaq erkinlik yosh, ijtimoiy mavqedagi farqlarni yo'qqa chiqarib, to'g'ridan to'g'ri munosabatlarga kirishishga undaydi. Bu

⁸ Решетников М. М. Глобализация - самый общий взгляд. Часть 1. - СПб., Восточно-Европейский институт психоанализа, 2002. - 76 с.

holatni o‘zbek xalqida oilaviy munosabatlardagi kichik bir holat bilan solishtirish orqali yaxshiroq anglab olishimiz mumkin. Sharqda azaldan oila tarbiya o‘chog‘i bo‘lib kelgan.

Mamlakatimizdagi ba’zi hududlarda oilaviy munosabatlarda er va xotin o‘zaro suhbatlashganida bir-biriga katta o‘g‘il farzandlarining ismi bilan murojaat qilishi, suhbatning grammatik tuzilishi uchinchi shaxsda amalga oshiriladi. Masalan, oilada katta o‘g‘il farzandning ismi Komil bo‘lsa, ayol o‘z eridan tushlik uchun qanday taom tayyorlashni so‘ramoqchi bo‘lsa, “Komil, tushlikka nima y e moqchilar?” deb murojaat qilishi mumkin. Ushbu epizodning o‘zidayoq o‘zbek xalqining mental xususiyatlari yaqqol aks etgan an'anaviy axloqni anglash qiyin emas. Ijtimoiy tarmoqlardagi bugungi munosabatlarda esa ma’lum axloqiy cheklovlanri bir chetga “surib qo‘yish” holatlari kuzatilmoqda. Bu kabi omillar o‘z o‘rnida axloqning kibermakonda transformasiyasiga sabab bo‘lmoqda. Endi din globallashuv haqida qisqacha to’xtalib o‘tsak. Umuman olganda, o‘tgan asrning ikkinchi yarmi va hozirgi davr insoniyat hayotida an'anaviy dirlarning o‘rni va roli oshib borayotgan bosqich sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, diniy omilning yangicha uslub va shakllar orqali siyosiy, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish jarayoniga tobora ko‘proq tortilishi ham shu davrga xos voqeа, hodisalarda kuzatilmoqda⁹.

Shuni alohida urg‘u berib o‘tish kerakki, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jahon dirlarining vujudga kelishi globallashuv jarayonining ilk ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni globallashuv atamasidan ko‘ra ancha oldin vujudga kelgan, uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari insoniyatning bir necha yuz yillik tarixiga daxldor. Din globallashuvini ham jahon dirlarning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘lashimiz mumkin. Zero, jahon dirlari bu ma’lum bir mintaqa, irq, etnik asosga ko‘ra e’tiqod qilish cheklanmaydigan, dunyoda ko‘p tarqalgan dinlar hisoblanadi. “Jahon dini” tushunchasi dunyo bo‘yicha salmoqli miqdordagi tarafdarlarga ega va konkret etnomilliy yoki siyosiy birlik bilan bog‘liq bo‘lmagan ijtimoiy institutni ifoda etadi. Boshqa qilib aytganda esa, jahon dirlari bu barcha uchun umumiyl daxldor bo‘lgan dinlar bo‘lib, din globallashuvining ilk ko‘rinishlari edi. Dinning globallashib borishi, ayniqsa, bugungi kun uchun ham xarakterlidir. Ma’lumki, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida u yoki bu diniy doktrina, urf-odat, marosim, ibodatlarni amalga oshirish usul va shakllari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuuning inson ongida aks etishini ifodalaydi¹⁰.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, hozirda dinding ikki funksiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bular: ulkan ijtimoiy guruhning uyushishi, birlashishini ta’minlovchi mafkuraviy hamda ekzistensial-psixologik, ya’ni kompensatorlik funksiyalardir. Ushbu funksiyalarga muvofiq ravishda din, bir tomonidan, sotsial birliklar uchun madaniy mansublikka ega bo‘lish vositasi, masalan, individ tomonidan o‘zining muayyan konfessiyaga tegishli ekanini anglab yetilishi, ikkinchi tomonidan, u

⁹ Komilov K. Globallashuv va diniy jarayonlar (Monografiya). – T.: “Movarounnahr”, 2014 y. – 16-17 betlar.

¹⁰ Komilov K. Globallashuv va diniy jarayonlar (Monografiya). – T.: “Movarounnahr”, 2014 y. – 19-20 betlar.

ma’naviy-ruhiy holat tarzida dunyoqarash o‘zagi, asosi sifatida namoyon bo‘lmoqda¹¹.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida barcha din va konfessiyalarga o‘z e’tiqodini keng tarqatish uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo‘lishi bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi raqobat ham kuchaymoqda. Dinlararo o‘zaro hurmat, hamkorlik ruhidagi sog‘lom muloqot olib borish amaliyoti joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ayrim diniy kuchlar, konfessiyalar vakillari tomonidan boshqa e’tiqod vakillarini oshkora yoki pinhona shakllarda kamsitish, mensimaslik, turli bo‘htonlar uyushtirish hollari kuzatilmoqda. Bu esa, muqarrar ravishda o‘zining ham ijobiylar, ham salbiy oqibatlari bilan kishilik jamiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega globallashuv imkoniyatlaridan oqilona foydalanish madaniyatining yetarli emasligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Глебов Г. И., Милаева О. В. Современные международные отношения. 2010. 98с.
2. Falsafa: ensiklopedik lug‘at – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2010.80 bet
3. Komilov K. Globallashuv va diniy jarayonlar (Monografiya). “Movarounnahr”, 2014y.16-20 betlar.
4. Ерофеева К.Л. Человек в информационном обществе; сущность и существование. Иваново, 2007. - 46 с.
6. Решетников М. М. Глобализация – самый общий взгляд. Часть 1. - СПб., Восточно- Европейский институт психоанализа, 2002. - 76 с.

¹¹ Ерофеева К.Л. Человек в информационном обществе; сущность и существование. - Иваново, 2007. - 46 с.